

*Мадаминова Х.Г.*

*студент*

*Научный руководитель: Эминов Р.И. ассистент*

*Ферганский Медицинский Институт Общественного Здоровья*

**БОЛЕЗНЬ АЛЬЦГЕЙМЕРА. ОТ СТАРОСТИ К ДЕТСТВУ.**

**"НАЗАД К НАЧАЛУ"**

*Аннотация: В статье представлена информация о болезни Альцгеймера, ее причинах и лечении, которые в настоящее время становятся все более популярными, а самый главный и негативный момент заключается в том, что лекарство от болезни до сих пор не найдено и болезнь все еще изучается.*

*Ключевые слова: болезнь Альцгеймера, память, деменция, нейроны, синапсы, патологии.*

*Madaminova Kh.G.*

*student*

*Scientific adviser: Eminov R.I. assistant*

*Fergana Medical Institute of Public Health*

**ALZHEIMER'S DISEASE. FROM OLD AGE TO CHILDHOOD.**

**"BACK TO THE BEGINNING"**

*Annotation: The article provides information about Alzheimer's disease, its causes, and the fact that its treatment is becoming more and more popular nowadays, and the most important and negative aspect is that a cure for the disease has not yet been found and the disease is still being studied.*

*Key words: Alzheimer's disease, memory, dementia, neurons, synapses, pathologies.*

*Madaminova H. G'.*

*talaba*

*Ilmiy rahbar: Eminov R.I. assistant*

*Farg'ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti*

## **ALSGEYMER KASALLIGI. KEKSALIKDAN CHAQALOQLIKKA QADAR. “IBTIDOGA QAYTISH”**

*Annotatsiya: Maqola Alsgeymer kasalligi, sabablari davolanishi hozirgi kunda kundun kun yosharib ommalashib borayotkani va eng muhimi va salbiy tomoni haligacha kasallikka davo topilmagan va haliam kasallik o'rganilyatkani haqida ma'lumot beradi.*

*Kalit so'zlar: Alsgeymer kasalligi, xotira, demensiya, neyronlar, sinapslar, patalogiyalar.*

### **Kirish:**

Alsgeymer kasalligiga o'xshash kasallikka “Eljernonga atalgan gullar” kitobini o'qiganimda duch kelganman. Asar qahramonidastlab aqliy faoliyati past bo'ladi keyinchalik laboratoriyada olib borilgan tajribalar va shifokorlar yordamida tuzaladi, lekin keyinchalik yana aqliy darajasi pasayishni boshlaydi. Unda dastlab ayrim narsalar esidan chiqadi keyinchalik oddiy gaplar kundalik so'zlar hotirasidan chiqib boshlaydi u boshida bunga e'tibor bermaydi. Lekin sekin asta bu jarayon kuchayadi kundalik ishlar gapirish qiyinlashadi sekin asta bari unitiladi u borgan sari aqliy faoliyati pasayib kichiklashib boradi huddi kata odam kichkina bolaga aylanayotkandek. Alsgeymer kasalligi ham huddi shunday kechadi.

**Tadqiqot usullari:** Mavjud adabiyotlarni, jumladan, ilmiy tadqiqotlar, tibbiy hisobotlar va ilmiy maqolalarni ko'rib chiqish, internet ma'lumotlaridan.

**Natijalar:** Alsgeymer kasalligi- xotira buzilishi bilan kechadigan og'ir ruhiy hastalik. U hotira yo'qolishi yoki demensiyaning keng tarqalgan ko'rinishidir. Odatda xotira yo'qolishi yoshi kattalar uchun hos shuning uchun ham bu kasallik ko'pincha 60-65 yoshdan oshgan keksalarda aniqladi. 2020 yilda Qo'shma Shtatlarda Altsgeymer kasalligining yosh guruhlari bo'yicha taxminiy tarqalishini ko'rsatadigan(jadval 1).


**Jadval 1**

<b>Yosh guruhi</b>	<b>Altsgeymer kasalligining taxminiy tarqalishi</b>
<b>65-74</b>	3.2%
<b>75-84</b>	17.3%
<b>85 va kattaroq</b>	32.8%

Kasallik boshlanishi aytkanimizdek asar qahramoni singari xotira buzilishi uzoq muddatli emas dastlab qisqa mudatli hotira buzilishi bilan boshlanadi. Yaqinda o'rgangan olgan ma'lumotlarini unutishni boshlaydi lekin oldin bo'lgan ishlar voqealarni doimgidek eslaydi. Boshida bu unchalik e'tiborga loyiqdek ko'rinmaydi. Ba'zi narsalarni esdan chiqarish bo'lib turadigan vaziyatdek ko'rinadi va jiddiy qaralmaydi. Lekin bu holat asta sekin ko'payadi bunaqa vaziyatlar doimgi holga aylanadi va asata sekin qisqa mudatli xotiralarni unutish yig'ilib uzoq mudatli xotirani unutishga olib keladi. Alsgeymerning asosiy alomati xotira buzulishi. Bunga sabab esa miyadagi neyronlar atrofiyasi kasallangan inson miyasi chegaralari kamayishidir. Kasallangan bemorda bir qancha patologiyalar asta sekin kelib chiqadi: miya to'qimalarida oqsillar noto'g'ri shakllanishi, neyronlar sinapslarini "yo'qolishi" va asab impulslarni o'tkazishda muammolar kelib chiqishidir. Shu kabi holatlardan keyin kasallik rivojlanishni boshlaydi. Alsgeymer kasalligi haqida toliq ma'lumotlar va tajribalarni bizga nemis psixiatri Alois Alsgeymer taqdim etadi . U turli hil kuzatishlar tadqiqotlar olib borib 1907 – yilda ommaga to'liq kasallik va kasallik borishi haqida to'liq malumot beradi. Kasallikni o'rgangan olim sifatida kasallika uning nomini berishadi.

Asosiy qism: Alsgeymer kasallik boshlanishi, alomatlari rivojlanishi sabablari va davo choralari.

Kasallik alomatlari yakuniy tashxis qoyilishidan ancha avval namoyon bo'ladi. Kasallik bu bosqichi preddemensiya deb ataladi. Kasallik boshlanish belgilari qisqa mudatli xotiraning buzilishi yangi ma'lumotlarni eslab qolishda va o'zlashtirishda qiyinchiliklar. Diqqatni jamlay olmaslik fikrlash bilan muammolar so'zlarni unutish. So'zlarni ma'nolarini unutish kasallikning eng muhim belgilaridan biri. Keying bosqich preddemensiya o'rnini erta demensiya egallaydi, (rasm 1) xotirada pasayish kuchayib boradi agnoziya (idrokni har hil turlari buzilishi) paydo bo'ladi.



**Rasm 1. Diagram of a normal brain compared to the brain of a person with Alzheimer's**

Demensiya dastlabki bosqichlarida so'z bo'yligi kamayadi nutq tezligi pasayadi kundalik ishlarni qilish sekin asta qiyinlashadi. Keying bosqich yengil demensiya bu bosqichda erta demensiyadegi buzilishlar kuchayadi qo'shimcha yozish va o'qish qobiliyatlari yo'qoladi sekin asta bemorga shahsiy gigiyenik ishlarida yordam kerak bo'la boshlaydi. Yengil demensiyaning eng muhim buzulish uzoq mudatli xotiraning buzulishi va xulq atvordagi o'zgarishlardir. Keying so'ngi bosqich og'ir demensiya bu bosqichda bemor toliq yordamga muhtoj bo'ladi nutqi chala ma'lum bir qismlardan iborat bo'lafi mushaklari sustlashadi sekin asta bu bora bora o'limga olib keladi. Ohir oqibat bemor hatto qorni ochganiyu nafas olish kerakligini ham esda chiqaradi. Va tamom ohiri o'lim bilan tugaydi.

Kasallik sabablari haligacha to'liq aniqlanmagan va isbotlanmagan. Lekin uni keltirib chiqaruvchilar haqidagi bir nechta tahminlar, gipotezalar mavjud.

Xolinergik gipoteza kasallik nerv muskul tarqalishi uchun javob beradigan biologik faol moddalarni kamayishi. Lekin bu gipotezga ko'pchilik olimlar qo'shilmaydi chunki bemorga shu kabi ner muskullarni tarqalishi uchun yordam beradigan moddalar jo'natilganda yaxshi samara bermagan.

Amiloid gipotezasi nomidan kelib chiqib turibdiki kasallik asosiy sababi betta-amiloidi peptidlaridir. Sog'lom odamda u miyyadagi asab hujayralarini himoya qiladi. Ular o'z vazifasini bajargandan so'ng xavsiz toksinlarga aylanadi keyin esa tanadan chiqib ketadi. Lekin aynan shu jarayon buzilsa aksincha himoya o'rniga zarar vazifasini bajaradi. Qo'shimcha ravishda ular birlashib proteazni yo'q qiluvchilarga kirishni to'sadi. Va qaysidur ma'noda miyyada keraksiz yot moddalar ahlatlar to'planadi. Shu tariqa alsgeymer kelib chiqadi degan tahmin bor. O'ylashimch bu gipotezaa haqiqatga yaqinroq lekin haliyam buning ustida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Ohirgi gipoteza Tau gipotezasi tushunib turipmizki mikrotabular bilan bog'liq bo'lgan oqsil Tau oqsili tuzulishidagi buzulishlar oqibatida kelib chiqadigan anormalliklarni o'rganadi. Tau oqsillari tuzulishidagi buzulishda ular iplari birlashib asab hujayralarida chalkashlik kelib chiqadi bu esa mikrotabularning parchalanishiga neyron tizimi ishdan chiqishiga sabab bo'ladi.

Kasallik ilk yengil formadagi belgillarini sezganingizda tezda shifokorga murojat qiling turmush tarzini o'zgartiring. Bu tarzda siz kasallikni qanchadur muddadga sekinlashtirishingiz uni og'ir asoratlarini bartaraf qilishingiz uchun imkoniyat paydo bo'ladi.

Kasallikni tekshirishda nevropatologga murojat qilinadi. Shifokor bemor va uning yaqinlari bilan suhbatlashishi anamnez yeg'ishi muhimdir. Bemor bilan neyropsixik testlar skrininglar sinovlari o'kaziladi. Bular barchasi xotira bilan bog'liq ishlardir eslab qolish rasmlardan nusxa ko'chirish yodlash va bosqalar. Uskunalar bilan tekshirishda SPECT va ET tasvirlash uskunalari qo'llaniladi va

yana serebrospinal suyuqlik tahlil qilinadi bu tepada aytgan gipotezalarimizdan tau amiloidlarni tekshirish uchun zarur. Kasallikni to'liq davolash usullari yo'q lekin sekinlashtirish vaqt cho'zish mumkin.

Alsgeymerni qo'llab quvatlovchi terapiyalarga avvalambor shifokor ko'rsatmalarini bajarish qa'tiy rioya qilish kasallik kechishini yumshatish asoratlarni kamaytirish mumkin. Kasallik davolashda 2 ta terapiya mavjud:

Dori terapiyasi – patalogik jarayonlarga ta'sir o'tkazishga imkon beradi. Alsgeymer kasalligida blyashka hosil bo'lishini oldini oladigan xolinesterezni to'sib turadigan dorilar buyuriladi. Bular donepezil rivastigmin va galantamin . bu dorilar xotirani nutqni yaxshilaydi .miyani qon aylanishini yaxshilash va neyronlarni himoya qilish uchun serebrozolin aktovegin buyuriladi. Tioridazin asablarni yumshatish uyqsizlikni oldini olishda ishlatiladi. Psixoemotsional stressni oldini olishda glitserin buyuriladi. Lekin shunga ham e'tibor berish kerakki kasallik hamada ham bir hil ketmaydi shuning uchun doim shifokor nazoratida bo'lish va o'zboshimchalik bilan ish tutmaslik kerak.

Psixoijtimoiy terapiya bu 2 terapiya bir birini toldiradi. Bunday terapiya alsgeymer kasalligini dastlabki bosqichlarida bemorlar kasallikka moslashishi ko'nokishi uchun beriladi. Bu usulda xotiralar bilan ishlash muloqat intellektual vazifalar bemor psixikasini ijobiy holatga keltirish kabilardir. Aytaknimizdek alsgeymer usulini universal va yakuniy davolash usullari yo'q.

**Xulosa:** kasallik ommalashuvi va yosharishi. Davolash chorali nega haligacha to'liq emas?

Kasallik uchrashi oldingi yillarga qaraganda jadal suratda ortgan. Achinarli jihati kasallik yoshlarda ham uchramoqda. 2006- yil global kasalliklar qatoridan joy olgan kasallikka chalinganlar soni 26.6 millionni tashkil etadi . 2050- yilga kelib ushbu raqam 4 baravarga ortishi olimlar tomonidan tahmin qilinmoqda. Kasallik Amerika va Yevropada o'rtacha yiliga ming kishiga 5-8 ta holat patalogiya bilan o'grigan bemorlar esa 27 million kishidan oshadi.JSST ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak har 3 soniyada 1 kishi alsgeymerga chalinadi hozir esa chalinganlar soni 50 milliondan ortiq. Yosharishiga sabab atrof muhit

inson miyyasiga ta'sir qiladigan psihik moddalar qandli diabet semizlik aqliy faoliyatning pastligi yoki gen yoki xromasoma kasalliklaridir.

Davolash choralari haligacha toliq emas sabab? Sabab shuki inson hali shu paytgacha to'liq o'rganib chiqilmagan haligacha tadfqiqotlar olib boriladi. Inson miyyasi esa o'ya nozik mehanizm o'rganisg uchun hali yana vaqt kerak kasallik paydo bolish tahminlarini ayta olsakda lekin bu 100 foiz mos tushmayapti. Bu kasallik hanuzgacha kelib chiqishi noaniq davosi yo'q kasalliklar qatorida.

Alseymmer kasalligiga qiziqanim shuki inson kasallik oqibatida ochligini unutish gapirishni unutish bora bora nafas olishni unutishi juda qiziq miyya shu darajada pastka qulab boradiki eng boshiga qaytadi. Alsgeymerni yetuklikdan ibtidoga qaytish desak bo'ladi bemalol sabab? Sabab shuki inson takkomillashadi yildan yil katta bo'ladi fikrlashi oshadi bilsak bollar katta bo'gan sari aqliy yetuk bolib fikrlashni o'sadi o'zi mustaqil kundalik ishlarni bajarishni boshlaydi mana o'zingiz ham qarab nazar solishingiz mumkin chaqaloq tug'ildi u faqat ovqatlanadi uhlaydi sekin asta narsalarga e'tibor berishdi ranglarni tovushlarni ajratishdi boshlaydi sekin asta emaklaydi keyin yuradi sekin asta boshida ba'zi so'zlarni gapirishdi boshlaydi shunday qilib bola katta bo'ladi katta bo'lgan sari har tomonlama o'sadi. Endi esa aslgeymerga qaytamiz. Alsgeymerda huddi shu holat teskari ketadi ya'ni katta bir yetuk inson kasallandi sekin asta katta bo'lib erishgan barcha qobiliyatlaridan birin ketin ayriladi. Avval xotira so'zlarni joylarni esidan chiqaradi oddiy ishlarni bajarish ham qiyinlashib boradi. O'zingiz bir o'ylang yo'lda ketyapsiz birdan miyyangiz bo'm bo'sh bo'lib qolgandek bo'ldi na bir joy nomi manzilni eslay olasiz hech nima esingizda yo'q. Shunchaki ketaverasz. Bemor ham huddi shunday o'lim tomon ozi tushunmagan holda keta bo'shlaydi. Harakatlanish qiyin mushaklarida og'riq bo'ladi va ohiri turalmay qoladi. Mana bu qaytish keksalikdan chaqaloqlikka qaytishdir. Bemor jim huddi chaqaloqlardek hech nimani bilmay yotadi. Va nafas olishni ham unutib ohiri ozi hohlamagan holda o'ladi.

Bu kasallik shunchalik qiziqarli va ochilmagan o'rganilmagan jihatlari inson shu darajada eslay olmasligi juda g'aroyib va juda achinarli holat albatta shu yaqin yillarda bariga javob olamiz degan umiddaman. Hozirda olimlar tomonidan tadqiqotlar davo chorali izlanmoqda. Ishonamizki hozirgi tibbiyotimiz bilan albatta shu yaqin yillar bu kasallik ham noma'lum va to'la o'rganilmagan kasalliklar qatoridan chiqadi.

“Yo'q, men kasal emasman. Kasal bo'lganimda kasal ekanimni bilmagan ham bo'lardim. Alsgeymerga duchor bo'lganlar menga o'xshab qalam olib o'z tarixini yozarmidi? Yo'q, yozmaydi. Kechinmalarinimi? Bilmadim. Ular nimani his qilarkin ozi? Axir ular hech nimani eslolmaydi, nimani qoralasin? Bugun tongda nonushtaga nima yeganinimi? Yo'q yo'q, sirayam yodiga kelmagan bo'lardi.”

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Odilov X, Mirzajonova S, Rustamov A. Ateroskleroz tibbiyotdagi dolzarb muammo va unga amaliy tavsiyalar. Epai [Интернет]. 25 февраль 2023 г. [цитируется по 24 апрель 2023 г.];. доступно на: <https://fer-teach.uz/index.php/epai/article/view/206>
2. Ibroximova N. “Men, dadam va alsgeymer”./ Yangi Asr Avlodi, 2021.
3. <https://www.alz.org>
4. <https://www.mayoclinic.org>
5. <https://uz.m.wikipedia.org>